

muammolarni samarali hal qilish ko'nikmasini berish, ularning kelajakdagi professional muvaffaqiyatlarini kafolatlaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. **Abdullaeva, M.** (2020). *Konstruktiv fikrlashni rivojlantirish metodikasi*. Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
2. **Islomov, D.** (2019). *Qurilish va konstruksiyalashda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. **Karimova, N.** (2021). *O'yinlar va mashqlar yordamida fikrlashni rivojlantirish*. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
4. **Ergashev, S.** (2022). *Qurilish konstruktsiyalarini loyihalash asoslari*. Toshkent: Qurilish va arxitektura.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN XAVFSIZLIKNI

O'RGATISHNING AHAMIYATI

Zavqiyeva Ulbo'sin Istamxon qizi

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus

ta'lim metodikalari kafedrası

Maktabgacha ta'lim B guruh tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yosh – bu bolalarning hayotida jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishning eng muhim bosqichidir. Aynan shu davrda bola atrof-muhitni faol o'rganadi, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradi, mustaqil harakat qilishga intiladi. Shu bilan birga, bu yoshdagi bolalar hali hayotiy tajribaga ega emasligi, xavf-xatarlarga nisbatan ehtiyotsizligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarga xavfsizlik qoidalarini o'rgatish ularning hayotini himoya qilish, sog'lom tarbiyani ta'minlash va kelajakda mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishi uchun juda muhimdir. Ushbu mavzuni yoritishdan asosiy maqsad — maktabgacha yoshdagi bolalarning hayoti va salomatligini saqlashda xavfsizlik qoidalarini o'rgatishning o'ta muhimligini asoslab



berishdir. Shu bilan birga, bolalarga yoshiga mos shaklda xavfsiz harakat qilishni o'rgatish orqali ularda kundalik hayotda to'g'ri va ehtiyotkorlik bilan muomala qilish ko'nikmalarini shakllantirish, turli xavfli holatlarga to'g'ri munosabat bildirish, mustaqil fikrlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish ham ushbu ishning muhim maqsadlaridan biridir.

Kalit so'zlar: Xavfsizlik qoidalarini, o't o'chirish transport vositasi tasvirlangan rasimlar, bolalar soniga mo'ljallangan tarqatma kartochkalar, xavfli predmetlar va tezkor xizmat raqamlari ko'rsatilgan peshlavhalar o't o'chirish buyumlari, yo'lbelgilari, svetafor.

Abstract: This article Preschool age is the most important stage of physical, mental and social development in the life of children. It is during this period that the child actively explores the environment, acquires new knowledge and skills, and strives to act independently. At the same time, children of this age are distinguished by their lack of life experience and inattention to dangers. Therefore, teaching preschool children safety rules is very important for protecting their lives, ensuring healthy upbringing and forming them as responsible individuals in the future. The main goal of covering this topic is to substantiate the extreme importance of teaching safety rules in preserving the lives and health of preschool children. At the same time, by teaching children to act safely in an age-appropriate manner, one of the important goals of this work is to form in them the skills of correct and careful behavior in everyday life, to correctly react to various dangerous situations, to develop the ability to think independently and make quick decisions.

Keywords: Safety rules, pictures depicting fire trucks, handouts for children, signs with dangerous objects and emergency service numbers, firefighting equipment, road signs, traffic lights.

Faoliyat nomi: "Nutq o'stirish" Qurish yasash va konstruksiyalash, Syujetli rolli o'yinlar, Fan va Tabiat, San'at markazlari

Faoliyat mavzusi: "Xavfli jihozlar "

Ta'limiy maqsadi: Tarbiyalanuvchilar bilan berilgan mavzu bo'yicha suhbatlar o'tkazish, bolalarning o't o'chiruvchilar ishi to'g'risida, xavfli buyumlarni mukin va mumkin bo'lmagan holatlar to'g'risida tasavvurlarini kengaytirish, lug'atini boyitish va faollashtirish. Bolalar turmushdagi xavfsizlik manbalari – elektir asboblari, gazpilitasi, gugurt haqida elementar bilimga ega

bo'ladilar, ayrim asboblarning bolalar uchun xavfli tomonlarini tushuntirib bera oladilar;

Tarbiyaviy maqsadi: Bolalar o'rtasida bir-birlarini o'zaro hurmat qilish boshqaning fikrini tinglashga o'rgatish va jamoa bo'lib o'ynash ko'nikmalarini rivojlantirish, yo'l belgilari, svetafor o'tish qoidalari;

Rivojlantiruvchi maqsadi: Bolalar o'z fikrini erkin bildirish ko'nikmasini shakillantirish, o'yinlar va markazdagi faoliyat davomida bola mustaqil, guruh bo'lib ishlashni o'rganish

Kerakli jihozlar: O't o'chirish transport vositasi tasvirlangan rasimlar, bolalar soniga mo'ljallangan tarqatma kartochkalar, AKT, xavfli



predmetlar va tezkor xizmat raqamlari ko'rsatilgan peshlavhalar o't o'chirish buyumlari, yo'lbelgilari, svetafor.

Faoliyatning borishi :

Tarbiyachi: Bolajonlar bugun sizlar bilan xayot uchun xavf tug'diruvchi buyumlar bilan tanishib chiqamiz; aytingchi bolajonlar sizlar ham shunday buyum va jihozlarni bilasizlarmi qani kim aytadi?

Bolalar: Pichoq, qaychi, gugurt, gaz, tok

Tarbiyachi: Barrakalla bolajonlar unday bo'lsa sizlar uchun xavf tug'diruvchi holat va buyumlar bilan tanishib o'rganib chiqamiz;

Birinchidan: O'z uyingizda duch kelishi mumkin bo'lgan xavflar: Ochiq oyna yoki ayvonchada o'ynamaslik, Favqulotda holatlar(yong'in, o'g'ri



tushishi, jarohatlanish), Ba'zi maishiy buyumlar ular quydagilar (rasim orqali bolalarga tanishtirib o'tish) ketmon, qaychi, pichoq, bolta, o'roq va boshqalardan iborat; Sayirda ham xavf-xatar bor bular quydagilar: Yo'lning harakat qismida, Tabiatda sayr chog'ida, Suv havzalari va yupqa muzustida juda ehtiyot bo'lish lozim.

Turli buyumlar mavjud o'tkir va xavfli ularni bilib oling bolajonlar esimizdan chiqarmaslik uchun:

Bu buyumlarga tegma, falokatni boshlama

- Gugurt

- Gaz o'choq

- Rozetka

- elektir jihozlari bu jihozlar emas o'yinchoq, pichoq, qaychi, igna, mix va boshqalar. Bu buyumlarga qat'iy tegish man etiladi : Dori-darmon, tig' buyumlar, pana joyda saqlanar, kimyoviy vositalar hayotga xavf solar. Ozgina shikastlansang, ko'p narsani bilasan, Qaychi igna pichoqdan, to'g'ri foydalanasan. Bolajonlarga rasim orqali ko'rsatib tanishtirib boriladi.

Bolajonlar o'tkir tig'li va xavfli buyumlarga kattalarni ruxsatisiz va yordamisiz tegmaslikni bilib oldik endi sizlar bilan bir harakatli o'yin o'ynaymiz: O'rnimizdan turib olamiz ;

Derazani ochamiz,

Toza havo kirsin deb.

Badan tarbiya bajaramiz,

Bir, ikki, uch, to'rt,

Tana kuchga to'lsin deb;

Shu sherni 3 marotoba takrorlab bolalar o'z joylarini eggalashadilar.

Tarbiyachi: Bolajonlar xavfli buyumlar haqida bilib oldik endi xavfli holatlardan biri bo'lgan yong'in va yong'inga birinchi bo'lib yordamga keladigan insonlar haqida va o't o'chiruvchi kasbi bilan tanishamiz. Bolajonlar



biz har xil xavli vaziyatlarda qolgan paytimiz “Favqulodda xizmatlar” raqamlarini yoddan bilishimiz lozim quydagilar;(rasm orqali tanishtirish)

101- “O‘T O‘CHIRUVCHI” XIZMATI

102-“MILITSIYA XIZMATI”

103-“SHIFOKOR XIZMATI”

104-“FAVQULODDA VAZIYATLAR” XIZMATIGA murojat qilishimiz mumkin

Tarbiyachi: Bolalar o‘t o‘chiruvchi kasbi nima uchun juda muhim,qani kim bu haqida nimalar biladi?

Bolalar:Yong‘in sodir bo‘lganda olovni o‘chirish uchun

Tarbiyachi: rahmat bolajonlar endi O‘t o‘chiruvchi mehnati va mashaqati bilan tanishamiz va xavfli buyumlar nima uchun bolalar hayotiga xavf solishni bilib olamiz.To‘g‘ri o‘t o‘chiruvchining ishi xavfli, qiyin,olovni o‘chirishda ular o‘z hayotlarini xavf ostiga qo‘yishadi.Yong‘inlar turli qavatlarda sodir bo‘ladi va ularga yetib borish oson emas, ayniqsa olov ichida odam bo‘lsa; (Plakatlardan o‘t o‘chiruvchi faoliyatlari aks etgan rasm lavha namoyish etiladi)

Tarbiyachi: Bolalar aytingchi, o‘t o‘chiruvchilar qanday bo‘lishi kerak?

Bolalar: O‘t o‘chiruvchilar kuchli chaqqon, jasur, tajribali, qo‘rqmqs bo‘lishi kerak.

Tarbiyachi: Nima uchun o‘t o‘chiruvchilar kuchli, chaqqon, jasur, tajribali bo‘lishi kerak?

Bolalar : Ular odamlarni olovdan olib chiqishlari uchun, tutun bilan kurashishlari kerak.

Tarbiyachi: O‘t o‘chiruvchilar nima kiyishadi?

Bolalar: O‘t o‘chiruvchilar maxsus kostyum va niqob kiyishadi.

Tarbiyachi: Bolalar kelinglar endi “O‘t o‘chiruvchilar” o‘ynini jamoa bo‘lib o‘ynaymiz: bolalarni ikki jamoaga bo‘lib o‘yinni o‘ynashga taklif qilqmniz.



Qoidalar va o'yinning borishi: suvni aniqidishlarni to'kmaslikka harakat qilib yugurish. Jamoa azolari saf turadi va tarbiyachi o'yinni boshlovchi signal bergach, suv solingan olib yugurib borganicha havzaga bo'shatadi va.

Tarbiyachi: Bolalar endi sizlar bilan o'yin o'ynaymiz

Tarbiyachi: Barakalla, bolajonlar, endi topishmoq aytaman sizlar esa javobini topasiz.

Yong'in va xavf qo'rqar mendan,

Zumda yetib boraman.

Qo'ng'irog'im ogoh etar,

Chirog'imda hushyor tortar. (O't o'chirish mashinasi)

Bolalar: O't o'chirish mashinasi

Tarbiyachi: ofarin bolalar topishmoqning javobini to'g'ri topdingiz. Qadim zamonlardan beri inson o't yoqishni va undan foydalanishni o'rgangan. Lekin keraksiz va kutilmagan yong'inlardan himoyalaniish uchun o't o'chiruvchilar xizmatiga doim ehtiyoj seziladi. Bolalar yong'inga nima sabab bo'lishi mumkin? Bolalar javobi tinglanadi Bolalarga "Yong'in sabablari" rasimlari ko'rsatildi;

i bir -biridan ajratib ko'rsatish talab etiladi bunda bolalar oldiga rasim tarqatiladi har bir bola oldidagi rasimga tezlik bilan javob qaytaradi shu tarzda o'yin yakunlanadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar endi yong'in mavzusiga mos she'rlar aytamiz

GUGURT

Jajjigina boshim bor

Qo'lga olmang jahil-la .

O'zimga xos ishim bor.

O'yinchoq deb boqmangiz,

Behudaga chaqmangiz.

Ishlatinglar aql-la,

Bolalar bilimini mustahkamlash uchun



O'yin nomi: "Mumkin va mumkin "bo'lmagan o'yinini o'ynaymiz, buyumlarni ajratamiz o'yinda ikkita ishtirokchi chiqib mumkin bo'lmagan buyumlar ni rasmini birinchi ustunga terib chiqamiz.Undan keyin mumkin bo'lgan bolalar uchun jihoz va buyumlarni ikkinchi ustunga terib chiqamiz bu metod bilan bolani xotirasini, chaqqonligini, xafli buyumlardan ehtiyot topasiz bo'lishni diqqatni jamlaydi,bola xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi .

1)Bugun qaysi kasb egalari ishlari bilan tanishdiik?

2)Xavfli buyumlar nomlarini ayting?

3)"Favqulotda Xizmatlar" raqamlarini nechi va ularni noma-nom aytib bering?

Bolajonlar jo'r bo'lib javobini juda chiroyli takrorlashdi..

Tarbiyachi :Bolalar endi sizlar bilan faoliyatimizni markazlarda davom ettiramiz;

Faoliyat nomi: "Qurish, konstruksiyalash va matematika" markazi

Maqsad navbatma navbat bajarish ko'p qavatli binolar uchun narvon:

Bolalar qurilish haqida tushunchaga ega bo'lishi, qurilish bosqichla

Kerakli jihozlar va materiallar:Sanoq cho'plar, karton, kley,

rangli qog, yog'ochalar, lego

Faoliyatning borish

Bolalar o'zlari xoxlagan buyumlarni olib qutqaruv narvonchasini, legolardan, yog'ochlardan, sanoq cho'plardan foydalanib o't o'chiruvchi mashinalari hamda baland binolarda yong'in sodir bo'lganda o't o'chiruvchi xizmatlaridan foydalanish

O'yining nomi "To'rtinchisi ortiqcha"o'ynini o'ynaymiz .

O'yining borishi: Bu o'yinda bolalar xotirasi charxlanib diqqatini jamlashga o'rgatadi Men sizga rasm ko'rsataman unda to'rtta obyekt bor va menga rasimdagi qaysi obyekt ortiqchaligini va yong'inga olib kelishini aytasiz.Rasmlar ko'rsatiladi va o'yin shu tariqa davom etadi bunda bolalar



yong'in chiqishining sabablarini aytib o'tishadi. Bu o'yinda bolalar jamoa bo'lib o'ynashadi va mantiqan yondashishga harakat qiladi.

Faoliyat nomi: "Syujetli rolli o'yinlar va sahnallashtirish" markazi

Maqsadi: Bolalar xavfli vaziyatlar haqida tasavvurga, qutqaruv xizmati nima ish qilishi haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak.

Kerakli jihozlar va materiallar: niqob, rul, mashina, kostyum, furajka, mavzu yuzasidan rasmlar va qutqaruv raqamlari vaziyatli rasimlar.

Faoliyatning borishi

Mavzu yuzasidan syujetli rasimlarni ko'rish, rollarni taqsimlash va turli vaziyatlarni sahnallashtirish, tezkor chaqiruv telefonlarini haqida bilimlarni mustahkamlash. O'yinlar, muhokama qilish va bolalarni so'z boyligini o'stirish.

O'yinning nomi: "O't o'chiruvchilarning chaqiring" o'yini o'ynaladi.

O'yinning borishi: Bu o'yinda bolalar, agar yong'in sodir bo'lgan bo'lsa nima qilish kerak? (Xonani tark etish va o't o'chiruvchilarni chaqirish kerakligi tushuntiriladi). Qaysi nomerga tel qilishimiz mumkin.

Bolalar she'riy tarzda boshlariga qutqaruv raqamini kiyib she'rlar bilan davom etishadi.

Birinchi bola: Mabodo uyda payting,

Uchqun chiqsa tok, simdan,

Asta tutay boshlasa

Darak berar yong'indan

Vaqting ketkazma o'rtoq

101-ga qil qo'ng'iroq.

Ikkinchi bola:

Ba'zida shunday bo'lar,

Uyga o'g'ri kirmoq istar

Yo'qotmagin o'zingni,



Chaqir tezda oyingni
Yoki kata odamni
Yordamga chaqir tezroq
“102” raqamga
Qila qolgin,qo’ng’iroq.

Uchinchi bola: Shifokorning yordami,
Kerak bo’lib qolsa gar.
“103” raqamiga,
Tez yordam javob berar,
Yetib kelib shifokorlar
Bemorga yordam berar

Tarbiyachi: Bo’lsang hamki kichgina
Shunchaki eslab qolgin,
Asosiy raqamlarni
Kerak vaqt ishga solgin.

Tarbiyachi: bolalar kelinglar O’t o’chirish bo’limiga telefon orqali qo’ng’iroq qilishga harakat qilamiz Men dispechir bo’laman, qo’ng’iroqlarni qabul qilaman va siz menga yong’in haqida xabar berasiz .

“O’t o’chiruvchilarni chaqiring” o’yini o’ynaladi.Yong’in bo’limiga qo’ng’iroq qilish uchun siz yong’in sodir bo’lgan ko’cha va uy raqamini bilishlari kerak(misol uchun Sardoba ko’chasi 3\2 xonadon Zavqiyeva Ulbo’sin) shu tariqa o’yin besh daqiqa davom etadi.

Bilimlarni mustahkamlash: Turli so’zlar bilan lug’at boyligini boyitish

Alohida e’tibor berish:bolalarning jamoada o’zini tutishiga,chaqqon harakatda bo’lishga o’rgatadi

Faoliyat nomi:Fan va Tabiat



Maqsad: Bolalar suv qumning ayrim xususiyatlari bilan tanishib, suvdan foydalanishni suv va qum bilan tajriba o'tkazishni, o't o'chiruvchilarning ish jarayonida suvning ahamiyati haqida tushuncha berish muhim.

Kerakli jihozlar :Suv, Qum, sham, gugurt, tok, mavzu yuzasidan rasmlar.

Faoliyatning borishi: O't o'chiruvchilarga yordamchi bo'lgan suv va qumning xususiyatlari bilan tanishish.

Suv rangsiz, hidsiz, suyuq ko'rinishda bo'lishini bolalar bilan birgalikda aytib o'tish, bolalar endi xonada yong'in chiqaramiz va yong'inni o'chirish uchun O't o'chiruvchilarni chaqirib olovni o'chiramiz. Olovni o'chirish uchun bizga suv va qum kerak bo'ladi yonayotgan sham va tog'orada yonayotgan qog'oz bo'laklaridan paydo bo'lgan olovni o'chiramiz va natijada olov o'chadi va yong'indan xalos bo'lamiz.

Bolajonlar endi sizlar bilan "Tajriba" o'tkazamiz Olov va Qum bilan tajriba o'tkazish sham orqali olov yoqish va uni qum bilan o'chirish shu tariqa davom etadi va olovni o'chiramiz endi sizlar bilan o'yin o'ynaymiz o'yining nomi

O'yining nomi: "Ortiqcha so'zni top"

O'yining maqsadi: Tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikirlashga o'rgatish, ularda o'z fikrini yorqin ifoda qilish ko'nikmasini shakillantirish.

O'yining borishi: Tarbiyachi bolaga 3-4 tadan iborat so'zlar ketma-ketligini o'qiydi. Bola o'sha qatordagi so'zining qaysi biri nima uchun ortiqchaligini izohlab berishi kerak. Misol uchun quydagi so'zlar ketma-ketligidan foydalanish mumkin: qaychi, pichoq, mix, banan, tok, dazmol, gugurt, sovun o'yin shu tariqa davom etadi bolalarni fikirlashga undaydi

Faoliyat nomi: "San'at"

Maqsad: Bolalar bila mavzu asosida rasmlarni tomosha qilish va noodatiy usulda rasim chizish va bo'yash oqava suvi, to'fon bo'lish jarayonini tasvirlash. Tasvirni bolalar bo'yoq va tish sho'tkasi orqali "Sajratqi" usulida va



barmoqlar yordamida bo'yash. Bo'yash orqali bolalar senso motorikasi barmoqlar yordamida rivojlantirish.

Kerakli jihoz va materiallar: Oq qog'oz, bo'yoq, qalam, tish sho'tka, baklashka, mo'yqalam, stakan, suv, salfetka, rasimli kartochkalar.

O'yin nomi: Rasimni to'ldir

O'yining borishi: Bolalar chizish malakasini mustahkamlash va xotirani charxlash, diqqatni jamlashni o'rganish, barmoqlar yordamida qo'l barmoq motorikasini rivojlantirish har xil usulda bo'yash.

Doskada yarim chizilgan rasimlarni chizishni davom ettirib va boshqa bola uni bo'yab qo'yish o'yin shu tariqa davom etadi bolalar ranglardan, qalamlardan, bo'yoqlardan foydalanib turli usullarni qo'lab bo'yash va ijod qilish.

Faoliyatni yakunlash: Bolalarni ishini ko'rib chiqib ularni rag'bat kartochkalari orqali rag'batlantirish va xavfsizlik qoidalariga qanchalik rioya qilganligini kuzatib borish.

Tarbiyachi: Bolajonlar bugungi faoliyatimiz o'z nihoyasiga yetdi va faoliyat davomida olgan bilimlaringizni rag'batlantiramiz va kayfiyatingizni tekshirish maqsadida "TEMPERATURA" o'ynini o'ynaymiz. Bu o'yin orqali bolalarning kayfiyatini nechi gradusda ekanligini bilib olamiz chizilgan gradusnikka raqamiga qarab kayfiyat smayillarini yopishtirish bolalarga faoliyat qanday ko'tarinki ruh berganini bilib olamiz shu bilan faoliyatlarimiz o'z nihoyasiga yetdi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarning xavfsizligini ta'minlash va ularga xavfsizlik qoidalarini o'rgatish – nafaqat tarbiyachilar, balki har bir ota-ona, pedagog va jamiyat a'zolari zimmasidagi muhim vazifadir. Chunki aynan shu yoshda bolaning hayotga bo'lgan qiziqishi, o'rganishga bo'lgan ehtiyoji kuchli



bo'ladi, biroq tajriba va ehtiyotkorlik yetishmaydi. Shuning uchun ham bolaga erta yoshdan boshlab kundalik hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tanitish, ulardan qanday himoyalaniшни o'rgatish hayotiy zaruratdir.

Tadqiqot va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, xavfsizlik qoidalarini erta yoshda o'zlashtirgan bolalar favqulodda vaziyatlarda o'zini tutishni, yordam so'rashni, noto'g'ri harakatlardan tiyilishni yaxshi bilishadi. Bu esa ularning sog'lom o'sishi, jismoniy va ruhiy barqarorligi uchun mustahkam zamin yaratadi. Shuningdek, xavfsizlik madaniyatini shakllantirish orqali bola mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavfsizlik tushunchasini shakllantirish – bu ularning shaxsiy hayotini himoya qilish bilan birga, ularni kelajakda to'g'ri qaror qabul qila oladigan, ogoh va mas'uliyatli fuqarolar etib tarbiyalashning dastlabki bosqichidir. Hozirgi kunda texnologiyalar rivojlanib, atrof-muhitdagi xavflar soni ortib borayotgan bir paytda, bolani nafaqat jismoniy, balki axborot xavfsizligi, ruhiy himoya kabi yo'nalishlarda ham tayyorlash muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarga xavfsizlikni o'rgatish — ularning hayotini himoya qilish bilan birga, ularni ongli, hushyor va mas'uliyatli shaxs etib voyaga yetkazishning asosiy shartlaridan biridir. Bu boradagi ta'lim-tarbiyaning sifatli olib borilishi nafaqat bolalar, balki jamiyat xavfsizligi uchun ham beqiyos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" o'quv dasturi. 2022 yil 4 – fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan II nashri.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. Toshkent shahri. 2020 yil 22-dekabr. 802-sonli O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining qarori.

3. N.Erxonova, Z.Ro'ziyeva. Tarbiyachi kitobi. Toshkent "Davir" Press NMU 2019 yil. 118-bet.

4. N.Erxonova, Z.Ro'ziyeva. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida tarbiyalanuvchilarning nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ta'limiy faoliyat ishlanmalari. Toshkent 2019 yil.

5. Elektron resurs manbalar:

- www.rtm.uz

- www.pedagog.uz

BOLALAR UCHUN BILIMLARNI SAMARALI O'ZLASHTIRISH USULLARI

Gapparova Zilola Ne'mat qizi

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

*Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus
ta'lim metodikalari kafedrasi o'qituvchisi*

Turopova Feruza Narzulla qizi

Maktabgacha ta'lim tarbiyachilari

"B" guruh tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalar uchun bilimlarni samarali o'zlashtirish usullari umumiy gurux va rivojlanish markazlarida olib boriladigan faoliyatlarda o'z aksini topadi. Ta'lim jarayonining asosiy mavzusini tanlash albatta bolalarning barcha faoliyati bu mavzuga bog' ishlangan bo'ishi kerak degani emas. Yaani markazlardai faoliyat mavzularini oy va hafta mavzulari va umumiy maqsaddan chetlashmagan holda o'zgartirishni va boyitishni tavsiya etiladi. Mavzuning asosiy muddalatga taqsimlashda maqsad –ta'lim jarayonining integratsiyalashtirish va bolalarda faoliyatni ta'lim sohalari bo'yicha asossiz taqsimlanishining oldini olishdan iborat.

Kalit so'zlar: Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy –xissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish malaholari, bilim jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish.